

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI

VOSITOV VOLIJON ABDUVAXOBVICH

**INGLIZ TILIDAGI TURKIY O‘ZLASHMALAR:
SOTSIOLINGVISTIK ASPEKT**

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2023

Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of the abstract of doctoral dissertation (DSc)

Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации

Vositov Volijon Abduvaxobovich

Ingliz tilidagi turkiy o‘zlashmalar: sotsiolingvistik aspekt..... 3

Vositov Volijon Abduvaxobovich

Turkic borrowings in English: sociolinguistic aspect..... 33

Воситов Волижон Абдувахобович

Тюркские заимствования в английском языке: социолингвистический аспект..... 63

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works

Список опубликованных работ..... 69

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI

VOSITOV VOLIJON ABDUVAXOBOVICH

**INGLIZ TILIDAGI TURKIY O‘ZLASHMALAR:
SOTSIOLINGVISTIK ASPEKT**

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

**Filologiya fanlari doktori (DSC) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2023

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.DSc/FII449 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Andijon davlat chet tillari institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezюме)) Farg'ona davlat universiteti veb-sayti www.fdu.uz hamda «ZiyoNet» axborot-ta'lim portali www.ziynet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Mamatov Abdi Eshonqulovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Usmonova Huriniso Sharipovna
filologiya fanlari doktori, professor

Ziyayev Avazjon Ixtiyorovich
filologiya fanlari doktori, professor

Ergasheva Guli Ismoil qizi
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:


Samarqand davlat chet tillar instituti


Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil 15.07 kuni soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 150100, Farg'ona shahri, B.Marg'inoniy ko'chasi, 105-uy. Tel: (99873) 244-44-02; e-mail: fardu_info@umail.uz).


Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universiteti Axborot resurs markazida tanishish mumkin 279 raqami bilan ro'yxatga olingan. (Manzil: 150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel: (99873) 244-44-02; e-mail: fardu_info@umail.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «15» 07 kuni tarqatildi.
(2023-yil «15» 07 dagi 16 raqamli reestr bayonnomasi).




Sh.M. Iskandarova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
filol.f.d., professor


M.T. Zokirov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, filol.f.n., professor


A. Mamajonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filol.f.d.,
professor

KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida turkiy tillar leksik birliklarining o'zga tillarga o'zlashishi masalasi XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab keng o'rganilmoqda. Ularning funksional xarakteristikasi, pragmatik xususiyatlari qator dunyo tillarida, jumladan, ingliz tili doirasida keng muhokama markazida bo'lmoqda. Shu bois tilning o'ziga xos hodisasi sifatida turkiy o'zlashmalarning fonetik, leksik-semantik, struktural-morfologik xususiyatlari ustida jiddiy ish olib borish ham nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo tilshunosligida turkiy o'zlashmalarning fonetik, leksik-semantik, struktural-morfologik xususiyatlarini ochib berishda ilmiy-nazariy fikrlar ilgari surilishi, xususan, ingliz tilidagi turkiy o'zlashma so'zlarning paydo bo'lishining tarixiy shart-sharoitlari, struktur-morfologik, xronologik, tematik, fonetik, grafik va leksik-semantik tomonlarining o'ziga xos jihatlarini tadqiq qilish zamonaviy tilshunoslik doirasida yangi yo'nalishlarni vujudga keltirmoqda. Natijada ingliz tilida turkiy o'zlashmalarning paydo bo'lish sabablari, struktural-morfologik, xronologik, tematik jihatdan turlari, fonetik, grafik va leksik-semantik xususiyatlarini o'rganishga doir ilmiy va nazariy qarashlar takomillashuvi kuzatildi.

Mamlakatimiz taraqqiyotini har tomonlama rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida ijtimoiy sohalarni yana ham rivojlantirish haqidagi ko'rsatmalarga asosan tilshunoslik oldiga qo'yilgan vazifalar sirasida bu masalani ham sanash mumkin. Shu jihatdan ingliz tilidagi turkiy o'zlashmalar, ularning paydo bo'lishidagi bevosita va bilvosita til aloqalari, xronologik, tematik va struktur-morfologik, fonetik, grafik va leksik-semantik jihatlari tahliliga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish zarurati mavjud. Zero, yurtboshimiz ta'kidlaganidek, "Biz o'z oldimizga rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo'shilish vazifasini qo'ydik, bunga esa fan, ma'rifat va innovatsiyalarga tayangan holda faqat jadal islohotlar o'tkazish orqali erishamiz"¹. Aynan shu nuqtayi nazardan, zamonaviy tilshunoslikda inson tiliga xos qator hodisalar va til birliklari, ularning ta'siri va tasnifiga bo'lgan yangicha yondashuvlar muhim o'rin oldiki, natijada tilning umumiy va xususiy masalalari yangicha tarzda, eng muhimi to'laqonli ravishda o'z talqinini topmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida», 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son «Oliy ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son «O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida»,

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномасидан: Бизнинг буюк ва доно халқимиз ўз тарихида шарафли саҳифаларни очишга кодир // «Халқ сўзи» газетаси, 25.01.2020. №19 (7490).

2022-yil 31-maydagi PQ-265-son «Andijon davlat chet tillari institutini tashkil etish to'g'risida»gi qarorlari, 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi². Ingliz tilida turkiy o'zlashmalarning paydo bo'lishidagi intralingvistik va ekstralingvistik omillarni o'rganishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar jahonning qator yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, Université de Genève (Shveytsariya), Buyuk Britaniyaning Oksford universiteti, Kaliforniya universiteti (The University of California, Berkeley), A.S.Pushkin nomidagi Rus tili instituti, Kiev xalqaro aloqalar milliy universiteti, Yangi Mexiko universiteti, Myunxen universiteti, Rossiya Fanlar akademiyasi Falsafa instituti (Rossiya), Uilfrida Lore universiteti (Kanada), Gumanitar fanlar davlat universiteti (Rossiya), Tula davlat pedagogika universiteti, Amerika lingvistik jamiyati, M.V.Lomonosov nomli Moskva davlat universiteti, Rossiya Ta'lim akademiyasi, Kolumbiya (Nyu-York) universiteti, Oslo universiteti (The University of Oslo), Surgut davlat universiteti (Rossiya), Rossiya Fanlar akademiyasi Psixologiya instituti, Sankt-Peterburg davlat universiteti, Moskva Politexnika universiteti Gumanitar fanlar kafedrası, Saratov davlat universiteti, Qozon federal universiteti, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Samarqand davlat chet tillar institutida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Dunyo tilshunosligida til aloqalari tamoyillariga asoslangan yangicha qarashlar asosida tadqiqotlar talay ilmiy natijalarning yuzaga kelishi uchun zamin bo'lgan: turkiy o'zlashmalarning ingliz tilida paydo bo'lishining ichki va tashqi omillari nazariy asoslangan (Université de Genève (Shveytsariya), Rossiya Fanlar akademiyasi Falsafa instituti (Rossiya), Gumanitar fanlar davlat universiteti (Rossiya), Tula davlat pedagogika universiteti, Amerika lingvistik jamiyati); mashhur ingliz leksikologi M.Serjantson Angliya va Turkiya aloqalarining natijasida ingliz tiliga turkiy tillardan o'zlashgan 41ta turkiy so'zlarning ro'yxatini tuzadi (Buyuk Britaniyaning Oksford universiteti); F.S.Iskakova ingliz tilida sharqiy o'zlashtirmalarning o'zlashish davrini tasniflaydi (Gumanitar fanlar davlat universiteti (Rossiya)); bilingvizm va turkiy o'zlashmalarning strukturasi ko'rib chiqilgan (Kolumbiya (Nyu-York) universiteti)); til aloqalarining paydo bo'lishida fundamental munosabatlar tahlil qilingan (Uilfrida Lore universiteti (Kanada), M.V.Lomonosov nomli Moskva davlat universiteti, Rossiya Ta'lim akademiyasi);

² Sharhda ilmiy manbalardan va <https://Avalon-linguistic.com>; <https://british-education.org.ru/education/university-of-aberdeen>; <https://msu.edu>; <http://www.universityofcalifornia.edu>; <http://www.dictionary.com>; <https://www.huberlin.de/de>; <http://www.smolgu.ru>; <https://www.adygnet.ru>; https://world.uz/ru/post/view/universitet_trakiya; <https://www.ankara.edu.tr/>; <http://m.science.gov.az/ru/institutes/764>; <http://bsu.edu.az> kabi saytlardan foydalanildi.

til birliklarining o‘zlashgan so‘zlarga ta’siri bo‘yicha tamoyillar ishlab chiqilgan (Oslo universiteti (The University of Oslo), Kaliforniya universiteti (The University of California, Berkeley), A.S.Pushkin nomidagi Rus tili instituti, Kiev xalqaro aloqalar milliy universiteti, Yangi Mexiko universiteti, Myunxen universiteti); tilda turkiy etnonimlar aniqlangan (Qozon federal universiteti, Surgut davlat universiteti (Rossiya), Rossiya Fanlar akademiyasi Psixologiya instituti, Sankt-Peterburg davlat universiteti); german tillarining shakllanishida til kontaklarining ahamiyati ochib berilgan (O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti); mustaqillik yillarida o‘zbek tiliga kirib kelgan xorijiy so‘zlarning tarkibiy-mazmuniy tahlili tadqiq qilingan (Samarqand davlat chet tillar instituti).

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Til aloqalari unumlingvistik muammolardan biri hisoblanib, uning tadqiq qilinishi tillarning o‘zaro aloqalarini aniqlash uchun muhim ahamiyatga egadir. Til aloqalari so‘z o‘zlashtirishning bevosita va bilvosita omillari ekanligi, o‘zlashgan so‘zlarning fonetik, leksik-semantik, morfologik, sintaktik xususiyatlari bo‘yicha ham muayyan ilmiy natijalarga erishilgan. Yagona davlat chegarasi doirasida yashovchi hamda bitta ijtimoiy-siyosiy tuzumga kiruvchi yoki bevosita hududiy yaqinlikka ega bo‘lgan til egalarining aloqalari tilshunoslar tomonidan o‘rganilgan bo‘lsa-da, lekin hududlari uzoq masofa bilan ajratilgan hamda har xil ijtimoiy-siyosiy tuzumlarga kiradigan xalqlarning til aloqalariga o‘zbek, rus va chet el tilshunosligida yetarli darajada e’tibor berilmagan.

Tilshunoslikda til aloqalari, uning turlari, turkiy leksik birliklarning ingliz tilida paydo bo‘lish sabablari, ichki va tashqi lingvistik omillar, til hodisalarining o‘zlashgan so‘zlarga ta’siri, fonetik, leksik, leksik-semantik va grammatik assimilyatsiyasi va qiyosiy tadqiqi masalalari yuzasidan jahon hamda yurtimiz tilshunoslari tomonidan ko‘plab tadqiqot ishlari olib borilgan va muhim ilmiy-nazariy qarashlar ilgari surilgan. Jumladan, Yevropa va AQSh tilshunoslaridan W.D.Whitney, O.Jespersen, G.H.McKnight, A.A.Daryush, U.Weinreich, E.Haugen, L.Zawadowski, J.Greenough and G.Kittredge, M.B.Emeneau³, rus olimlaridan V.A.Bogoroditskiy, B.V.Gornung, V.I.Abayev, I.A.Boduen de Kurtene, Y.D.Desheriev, Y.A.Jluktenko, A.M.Rot, V.Majyulis, T.P.Ilyashenko, M.Z.Muslimov, K.G.Lobovikova, M.V.Lisnik, S.V.Svinsova, N.V.Labunets, O.Y.Klonova, E.E.Ujinin, R.R.Shayxutdinova, V.V.Charskiy, R.L.Isxakov, E.Lashgari, Y.S.Blajevich, O.B.Istomina, R.M.Akbari, Chjao Chje, M.A.Yelizareva, K.A.Ilina, L.A.Ulyanitskaya, N.N.Muxin⁴, o‘zbek

³ Whitney W.D. On mixture in Language, Transactions of the American Philological Association. On Mixture in Language. The Johns Hopkins University Press. Vol. 12, 1881. – Pp. 5-26; Jespersen O. A New Science: Interlinguistics. Section four. The problem of an international auxiliary language. – Cambridge, 1930. – Pp. 57-67; McKnight G.H. English Words and Their Background. – N.Y.: Appleton-Century, 1923. – 449 p; Daryush A.A. Persian Words in English. Society for Pure English. Tract N° XIII, London, 1934. – Pp. 89-98; Weinreich U. Languages in Contact. New York: 1953. – 263 p; Haugen E. Language contact. Report: Proceedings of the Eighth International Congress of Linguists.– Oslo:Oslo University Press, 1958. – 885 p; Zawadowski L. Fundamental relations in language contact. BPTJ, 1961; Warszawa, Zeszyt XX. – 135 p; Greenough J., Kittredge G. Words and Their Ways in English Speech. – N.Y.: Wentworth Press, 1961.– 460 p; Emeneau M.B. Bilingualism and structural borrowing. P.A. Philos. S.C.V. 1962. – P. 3-16.

⁴ Богородицкий В.А. К вопросу о “смешанных” языках. // Известия общ-ва археол., истории и этнографии. Т. 12. Вып. 1. – Казань: 1894. – С. 37-54; Горнунг Б.В. К вопросу о типах и видах взаимодействия языков. –

tilshunoslaridan O‘.Q.Yusupov, A.Nurmonov, A.Mamajonov, M.Abdupattheyev, N.Raxmonov, Sh.S.Safarov, M.E.Umarxo‘jayev, S.Mo‘min, G‘.M.Xoshimov, O.Jumaniyozov, A.Tursunov, Sh.Muxtorov, Sh.Raxmatullayev, D.S.Qulmamatov, N.Uluqov, Sh.Iskandarova, H.Usmonova, R.R.Sayfullayeva, B.R.Mengliyev, G.H.Boqiyeva, M.M.Qurbonova, Z.Q.Yunusova, M.Q.Abuzalova, A.Anorbekova, Sh.Mirzayeva, U.Y.Qo‘ziyev, G.I.Ergasheva, M.X.Hakimov, B.X.Daniyarov, S.E.Normamatov, A.I.Ziyayev, O.T.Xujanova, Z.Sadiqov, N.A.Isakova, A.M.Qo‘ldoshev⁵ kabi olimlar o‘zlashma so‘zlar doirasida

Доклады и сообщения АН СССР, № 2, М.: 1952. – С. 3-7; Абаев В.И. О языковом субстрате. – “Доклады и сообщения института языкознания АН СССР”, №9, – М., 1956. – С. 57-69; Бодуэн де Куртенэ И.А. О смешанном характере всех языков. – “Избранные труды по общему языкознанию”. Т. I. – М.: Академии наук СССР, 1963. – 385 с; Дешериев Ю.Д. Закономерности развития и взаимодействия языков в советском обществе. – М.: Наука, 1966. – 402 с; Жлуктенко Ю.А. Украинско-английские межязыковые отношения в США и Канаде: Автореф. дисс...д-ра филол. наук. – Л.: 1967. – 34 с; Рот А.М. Венгерско-восточнославянские языковые контакты: Автореф. дисс...д-ра филол. наук. – М.: 1969. – 42 с; Мажюлис В. Литовско-индоевропейские языковые отношения: Автореф. дисс... докт. филол. наук. – Вильнюс: 1968. – 37 с; Ильяшенко Т. П. Языковые контакты (на материале славяно-молдавских отношений). – М.: Наука, 1970. – 205 с; Муслимов М.З. Языковые контакты в Западной Ингерманландии (нижнее течение реки Луги): Автореф. дисс...канд.филол.наук. – СПб.: 2005. – 28 с; Лобовикова К.Г. Проблемы турецкого завоевания и ислама глазами Георгия Трапезундского (X V в.): Автореф. дисс...канд.филол.наук. – Екатеринбург: 2005. – 28 с; Лисник М.В. Лингвистические признаки речевой компрессии в ситуации искусственного билингвизма (русско-французский языковой контакт): Автореф. дисс...канд.филол.наук. – Ярославль: 2005. – 20 с; Свинцова С.В. Специфика структурно-семантической адаптации заимствований и их функционирование в условиях опосредованных и непосредственных языковых контактов: на материале англо-американизмов в испанском языке Испании и США: Автореф. дисс...канд.филол.наук. – Саратов: 2006. – 24 с; Лабунец Н.В. Русская географическая терминология в ситуации языкового контакта: Автореф. дисс...д-ра филол.наук. – Екатеринбург: 2007. – 46 с; Клонова О.Ю. Упрощённые языковые системы и формирование пиджина (на материале русско-норвежских языковых контактов): Автореф. дисс...канд.филол.наук. – СПб.: 2007. – 27 с; Ужинин Е.Е. Турецкие заимствования в языках восточно-средиземноморского ареала (языковые контакты на территории Османской империи): Автореф. дисс...канд.филол.наук. – М.: 2008. – 26 с; Шайхутдинова Р.Р. Англо-русские языковые контакты конца XX-начала XXI вв. в сравнительном освещении: Автореф. дисс...канд.филол.наук. – Казань: 2008. – 23 с; Чарский В.В. Южнорусинский язык в свете языковых контактов (лингвогенетический аспект): Автореф. дисс...канд.филол.наук. – М.: 2008. – 26 с; Исхаков Р.Л. Эволюция тюркской печати в хх веке: от этничности к постэтнической идентификации (филологический анализ): Автореф. дисс... канд.филол.наук. – Екатеринбург: 2009. – 22 с; Лашгари Э. Словесное ударение в аспекте русско-персидских языковых контактов: Автореф. дисс...канд.филол. наук. – М.: 2010. – 27 с; Блажевич Ю.С. Лексическая интерференция в условиях языкового контакта (на материале языка русских эмигрантов в Португалии): Автореф. дисс...канд.филол.наук. – Белгород: 2011. – 23 с; Истомина О.Б. Языковые контакты в современном российском обществе: Сущность, формы, тенденции и (региональный аспект): Автореф. дисс...д-ра филол.наук. – Улан-Удэ: 2013. – 50 с; Акбари Р.М. Русско-персидские языковые контакты (на материале заимствований): Автореф. дисс...канд.филол.наук. – Казань: 2014. – 22 с; Чжао Чжэ. Звуковая интерференция в русском языке под влиянием языка-субстрата в условиях русско-китайских языковых контактов: Автореф. дисс...канд.филол.наук. – М.: 2017. – 23 с; Елизарьева М.А. Лексическое и семантическое калькирование как фактор формирования языковой картины мира (на примере немецко-чешского языкового контакта): Автореф. дисс...канд.филол.наук. – М.: 2017. – 25 с; Ильина К.А. Фонетическая интерференция как часть произносительных тенденций в современном английском языке: Автореф. дисс...канд.филол. наук. – М.: 2018. – 36 с; Ульяницкая Л.А. Лексическая и грамматическая интерференция во фламандском варианте нидерландского языка: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – СПб.: 2018. – 28 с; Мухина Н.Н. Восточные заимствования в современном русском языке: Системно-описательный аспект: Автореф. дисс...канд.филол.наук. – Владикавказ: 2019. – 28 с. ва б.

⁵ Юсупов У.К. Теоретические основы сопоставительной лингвистики. – Ташкент: Фан, 2007. – 127 с; Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – 202 б; Мамажонов А., Абдупаттеев М. Ўзбек матнининг семантик, синтактик ва стилистик аспекти. Фаргона, 2021; Рахмонов Н. Турк хоқонлиги. - Т.: Фан, 1993. – 142 б; Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. Рисола. – Жиззах: Сангзор, 2006. – 92 б; Умархўжаев М.Э. Умумий тилшунослик. – Андижон, 2010. – 76 б; Умархўжаев М.Э. Немис тили. Лексикология. Лексикография. Фразеология. Фразеография. – Андижон: Жаҳон-интер принт, 2010. – 103 б; Мўмин Сиддиқ. Сўзлашиш санъати. – Фаргона: Фаргона, 1997. –100 б; Khashimov G.M. Lectures on Comparative Typology (Third edition, revised). – Andizhan, 2017. – 100 p; Жуманиёзов О. Ўзбек тилидаги

izlanishlar olib borgan bo'lsa-da, lekin mazkur masala yetarli darajada monografik holda o'rganilmagan.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Andijon davlat chet tillari instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining «Zamonaviy tilshunoslik muammolari» yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz-turkiy tillari aloqalarining turlarini, turkiy so'zlarning ingliz tili leksik qatlamida paydo bo'lish sabablarini, ingliz tiliga turkiy tillardan so'z o'zlashtirilishining bosqichlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o'zlashma so'zlar, bilingvizm, polilingvizm va ularning turlari borasidagi nazariy fikrlarni o'rganish va tahlil qilish;

Angliya-Turkiya va Angliya-O'rta Osiyo davlatlari tillari aloqalarining turlarini aniqlash;

ingliz yozma yodgorliklari matnlari, o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima asarlar va leksikografik manbalardagi turkiy o'zlashmalarni topish, ularning o'rganilayotgan davr ingliz tili leksik tizimidagi o'rnini aniqlash;

turkiy o'zlashmalarning struktur-morfologik, xronologik va tematik tamoyil bo'yicha tasnifini yaratish;

zamonaviy ingliz tilida turkiy so'zlarning fonetik, leksik-semantik, grammatik moslashishini tahlil qilish.

Tadqiqotning obyekti sifatida til aloqalari natijasida ingliz tiliga o'zlashgan turkiy leksik birliklar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini XVI asrdan hozirgi paytgacha ingliz tiliga o'zlashgan turkiy so'zlarning paydo bo'lish sabablari, struktural-morfologik, xronologik va tematik jihatdan turlari, fonetik, grafik, leksik-semantik va grammatik xususiyatlarini aniqlash tashkil etadi.

герман тиллари ўзлашмалари. – Тошкент: Фан, 1987. – 86 б; Турсунов А., Мухторов Ш., Рахматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – 400 б; Кулмаатов Д.С. Среднеазиатские дипломатические документы и их русские переводы XVII в. (Грамоты.Челобитные). – М.: МПГУ, 1994. – 109 с; Улуқов Н. Ўзбекча диний матнлар экзотик лексикаси: Филол. фан. номз. ...дис. автореф. – Тошкент, 1997; Искандарова Ш. Лексикани мазмуний майдон асосида ўрганиш муаммолари. – Тошкент: Фан, 1998. – 50 б; Усмонова Х. Ўзбек тилидаги гап бўлақларининг позицион тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2005. – 165 б; Сайфуллаева Р.Р., Менглиев Б.Р., Боқиева Г.Х. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Ўқув қўлланма. – Тошкент: 2009. – 391 б; Анорбекова А., Мирзаева Ш. Ҳозирги Ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ношир, 2012. – 316 б; Қўзиев У.Я. Ўзбек тили изоҳли лугатларида ўзлашма сўзлар таҳлили. – Наманган: Vodiу Media, 2016. – 168 б; Эргашева Г.И. Турли тизимдаги тилларда гендерга оид терминологиянинг шаклланишида лингвистик ва экстралингвистик омиллар: Филол.фан.д-ри...дисс. – Тошкент, 2018. – 222 б; Ҳакимов М. Ўзбек прагмалингвистика асослари. – Тошкент: Академнашр, 2013. – 176 б; Данияров Б.Х. Ўзбек тили лексик синонимларининг лисоний ва нутқий муносабати, лексикографик тадқиқи: Филол.фан.д-ри...дисс.автореф. – Самарқанд: 2019. – 69 б; Нормаматов С.Э. Ўзбек лугатчилигининг шаклланиши ва ривожланишида жадид маърифатпарварларининг ўрни: Филол.фан.д-ри...дисс.автореф. – Тошкент: 2019. – 69 б; Зияев А.И. Тилда интенсификация/деинтенсификация семантикасининг лисоний бирлик ва шакл парадигмаларини ҳосил қилиши: Филол.фан.д-ри...дисс.автореф. – Фаргона, 2020. – 74 б; Хужанова О.Т. XVI–XVIII асрлар рус иш юритиш ёдгорликларидаги шарқий экзотизмлар: Филол.фан.бўй.фал.док... автореф. – Тошкент: 2020. – 50 б; Садиқов З. Қадимги туркий реалиялар таржимаси. – Наманган: Vodiу Media, 2021. – 121 б; Исакова Н.А. Мустақиллик йилларида ўзбек тилига кириб келган хорижий сўзларнинг таркибий-мазмуний таҳлили (“Халқ сўзи” газетаси материаллари асосида): Филол.фан.бўйича фал.докт...дисс.автореф. – Самарқанд, 2021. – 53 б; Қўлдошев А.М. Халқлар буюк кўчишининг герман тиллари шаклланишидаги роли: Филол.фан.д-ри...дисс. – Тошкент, 2022. – 263 б.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda komponent, tasnifiy, struktur, madaniy, statistik, qiyosiy tahlil, shuningdek, lingvistik tavsiflash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

jahon tilshunosligida o‘zlashma so‘zlar, bilingvizm, polilingvizm va ularning turlari borasidagi ilmiy adabiyotlar tahlil qilinib, ingliz tiliga o‘zlashgan turkiy so‘zlarni ajratishda ingliz yozma yodgorliklari muhim lingvistik manba ekanligi isbotlanib, bilingvizm va polilingvizmning kontakt va distant turlari aniqlangan;

Angliya-Turkiya va Angliya-O‘rta Osiyo davlatlari tillari aloqalari ekstralingvistik omillar natijasida bevosita Angliya-Turkiya, Angliya-O‘rta Osiyo davlatlari tillari aloqalari va bilvosita ingliz-turkiy tillar aloqalari tiplari aniqlangan;

ingliz yozma yodgorliklari matnlari va leksikografik manbalardagi turkiy o‘zlashmalarning semantik strukturasi sifati o‘zgarishlari so‘zning ma’no doirasining torayishi va semantik sferasining ijobiy, salbiy o‘tkenkaga ega bo‘lishi hamda so‘z ma’nosini ko‘chirish yo‘li orqali uning ma’nosining kengayishi bilan bog‘liq semantik o‘zgarishlar ochib berilgan;

XVI–XX asrlar ingliz yozma yodgorliklari matnlarida qo‘llanilgan turkiy so‘zlarning struktur-morfologik, xronologik va tematik tamoyil bo‘yicha leksik-semantik jihatdan inson va jamiyat, uy jihozlari, mehnat va hordiq, inson aqliy faoliyati bilan bog‘liq tushunchalarni anglatuvchi guruhlar va ularning etimologiyasi, XXI asrga kelib O‘zbekistonning dunyodagi ko‘plab mamlakatlar bilan ijtimoiy-iqtisodiy, diplomatik aloqalarini yanada mustahkalanishi ortidan ingliz tiliga o‘zlashgan kurash, chala, yonbosh, halol, g‘irrom kabi so‘zlar aniqlangan;

XVI–XX asrlar ingliz yozma yodgorliklari, XXI asrda o‘zbek tilidan ingliz tiliga tarjima asarlar matnlarida qo‘llanilgan turkiy o‘zlashmalarning fonetik, leksik-semantik va grammatik jihatdan moslashuvi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ishda nafaqat umumiy tilshunoslik, balki leksikologiya, onomastika fanlari bo‘yicha darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratish hamda nazariy va amaliy kurslarda foydalanish nechog‘lik muhimligi aniqlangan;

turkiy o‘zlashmalarning struktur-morfologik, xronologik va tematik tamoyil asosida leksik-semantik turlarining xususiyatlarini aniqlash uchun XVI–XX asrlar ingliz yodgorliklari tadqiqotining ahamiyati ko‘rsatilgan;

turkiy o‘zlashmalarni o‘rganish bo‘yicha uslubiy tavsiyanomalar ishlab chiqildi va o‘quv jarayoniga kiritilgan;

oliy o‘quv yurtlaridagi bakalavr ta’lim yo‘nalishi va magistratura mutaxassisligida o‘tiladigan umumiy tilshunoslik, lingvokulturologiya, ingliz va turkiy tillar tarixiy fonetikasi, grammatikasi va leksikologiyasi kabi darslarda turkiy o‘zlashmalardan foydalanish mexanizmi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi chiqarilgan xulosalarning metodologik mukammalligi, nazariy ma’lumotlarning ilmiy va badiiy matnlardan olinganligi,

qo'yilgan masalalarning aniqligi hamda olingan natijalarning xorijiy mutaxassislar va vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining **ilmiy** ahamiyati ingliz tiliga o'zlashgan turkiy leksik birlikning nazariy masalalari ochib berilganligi, so'z o'zlashtirish jarayonining sodir bo'lishidagi omillarning aniqlanganligi, turkiy o'zlashmalarning ingliz tilida fonetik, morfologik va semantik moslashuvlari dalillanganligi, ingliz tilshunosligida turkiy o'zlashmalar muammosini yanada chuqurroq tahlil qilishga nazariy asos bo'lishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining **amaliy** ahamiyati shundaki, dissertatsiyaning xulosalari va materiallaridan OTMLar uchun umumiy tilshunoslik fanidan nazariy kurslari bo'yicha material sifatida darslik va qo'llanmalar yozishda, ingliz tili tarixiy fonetikasi, leksikologiyasi, grammatikasi kurslarini o'qitishda, ingliz tiliga o'zlashgan turkiy so'zlar lug'atlarini tuzishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Dissertatsiyada ishlab chiqilgan nazariy va amaliy xulosa, tavsiya va ishlanmalar asosida:

jahon tilshunosligida o'zlashma so'zlar, bilingvizm, polilingvizm va ularning turlari borasidagi ilmiy adabiyotlar tahlil qilinib, ingliz tiliga o'zlashgan turkiy so'zlarni ajratishda ingliz yozma yodgorliklari muhim lingvistik manba ekanligi isbotlangan, bilingvizm va polilingvizmning kontakt va distant turlari xususidagi xulosalardan Evropa Ittifoqi tomonidan Erasmus+dasturining 2016-2018-yillarga mo'ljallangan 561624-EPP-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS+SBNEIMEP: "O'zbekistonda oliy ta'lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish" mavzusidagi loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2022-yil 09-noyabrdagi 3071/30.02.01-son ma'lumotnomasi). Natijada loyiha ichida tadqiqot ishini takomillashtirishda, xususan mazkur manbalar loyiha materiallarini mukammallashtirgan va talabalarning lingvistik kompetensiyasini oshirgan;

Angliya-Turkiya va Angliya-O'rta Osiyo davlatlari tillari aloqalari ekstralingvistik omillar natijasida bevosita Angliya-Turkiya, Angliya-O'rta Osiyo davlatlari tillari aloqalari va bilvosita ingliz-turkiy tillar aloqalari tiplari haqidagi tahliliy fikrlar va nazariy xulosalardan 2014-2015-yillarga mo'ljallangan I-204-4-5 "Ingliz tili mutaxassislik predmetlaridan axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratish va o'quv jarayoniga joriy etish" mavzusidagi innovatsion tadqiqot loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2022-yil 09-noyabrdagi 3070/30.02.01-son ma'lumotnomasi). Natijada loyiha ilmiy dalillar bilan boyitildi, xususan axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratish va o'quv jarayoniga joriy etishda turkiy leksik birliklarni lingvistik tadqiqot obekti sifatida olinishi muhim ahamiyat kasb etgan;

ingliz yozma yodgorliklari matnlari va leksikografik manbalardagi turkiy o'zlashmalarning semantik strukturasi sifati o'zgarishlari so'zning ma'no doirasining torayishi va semantik sferasining ijobiy, salbiy o'ttenkaga ega bo'lishi hamda so'z ma'nosini ko'chirish yo'li orqali uning ma'nosining kengayishi bilan

bog‘liq semantik o‘zgarishlar kabi ilmiy yangiliklardan Qo‘qon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi A.Najmeddinov rahbarligida S-ECAGD-18-CA-0067 (PO20002335) raqamli “FY 2018 English Access Microscholarship Program” nomli Amerika Qo‘shma Shtatlari ta‘lim va madaniy ishlar byurosi bilan hamkorlikdagi amaliy loyihasi doirasidagi ta‘limiy, madaniy sohadagi tadbirlar, amaliy ishlarda foydalanilgan (Qo‘qon davlat pedagogika institutining 2022-yil 14-dekabrda 347-son ma‘lumotnomasi). Natijada tadqiqotda ilgari surilgan qator taklif va tavsiyalar, ilmiy yangiliklar asosida dastur va qo‘llanmalarni yaratishga, ta‘lim hamda madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan nazariy va amaliy ishlarni yanada samarali tashkil etishga xizmat qilgan;

XVI–XX asrlar ingliz yozma yodgorliklari matnlarida qo‘llanilgan turkiy so‘zlarning struktur-morfologik, xronologik va tematik tamoyil bo‘yicha leksik-semantik jihatdan inson va jamiyat, uy jihozlari, mehnat va hordiq, inson aqliy faoliyati bilan bog‘liq tushunchalarni anglatuvchi guruhlar va ularning etimologiyasi, XXI asrga kelib O‘zbekistonning dunyodagi ko‘plab mamlakatlar bilan ijtimoiy-iqtisodiy, diplomatik aloqalarini yanada mustahkalanishi ortidan ingliz tiliga o‘zlashgan kurash, chala, yonbosh, halol, g‘irrom kabi yangiliklardan Namangan davlat universiteti Amaliy ingliz tili kafedrasida falsafa fanlari doktori (PhD) D.M.Sarimsaqova boshchiligida AQShning O‘zbekistondagi elchixonasining Alumni Outreach Grants Program dasturi doirasida 2020-2021-yillarda Namangan davlat universitetida bajarilgan S-UZ800-20-IN-0106 raqamli “Virtual Workshop on Collaborative Action Research for English Teachers” amaliy loyihasi doirasida foydalanilgan (Namangan davlat universitetining 2023-yil 23-yanvardagi 27-01-son ma‘lumotnomasi). Natijada tadqiqotda ilgari surilgan qator taklif va tavsiyalar, ilmiy yangiliklar asosida dastur va qo‘llanmalarni yaratishga, ta‘lim hamda madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan nazariy va amaliy ishlarni yanada samarali tashkil etishga xizmat qilgan;

XVI–XX asrlar ingliz yozma yodgorliklari, XXI asrda o‘zbek tilidan ingliz tiliga tarjima asarlar matnlarida qo‘llanilgan turkiy o‘zlashmalarining fonetik, leksik-semantik va grammatik jihatdan moslashuvi borasidagi ma‘lumotlardan Eroning Mashhad Firdavsiy universiteti ta‘lim jarayonida foydalanilgan (Eron Islom Respublikasi Mashhad Firdavsiy universitetining 2023-yil 14-fevraldagi ma‘lumotnomasi). Natijada tadqiqotda ilgari surilgan ma‘lumotlar tilshunoslik sohasida ilmiy izlanish bilan shug‘ullanayotganlarga foydadan holi emas, shuningdek ilmiy yangiliklar asosida ona tilisi turkiy tillardan biri bo‘lmagan talabalar uchun turkiy tillar tilshunosligi bo‘yicha nazariy va amaliy ma‘lumotlarga ega bo‘lishida yanada samarali manba bo‘lib xizmat qilgan;

ingliz yozma yodgorliklari matnlari va leksikografik manbalardagi turkiy o‘zlashmalar ma‘nosining torayishi va kengayishi bilan bog‘liq semantik o‘zgarishlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanali DM “Madaniy-ma‘rifiy va badiiy eshittirishlar” muharririyati tomonidan tayyorlangan “Ta‘lim va taraqqiyot”, “Adabiy jarayon”, “Jahon adabiyoti” radioeshittirishlar ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2022-yil 09-noyabrda O‘z/RV-

2224-son ma'lumotnomasi). Natijada ushbu teleko'rsatuvlar ilmiy va amaliy jihatdan boyigan, ijtimoiy xususiyatlari ortgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari yuzasidan 6 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda ma'ruza qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 9 ta, xorijiy nashrlarda 2 ta maqola e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, 241 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, ishning maqsad va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalar asosida dissertatsiyaning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Tilshunoslikda so'z o'zlashtirish hodisasining nazariy asoslari**» deb nomlanib, unda so'z o'zlashtirish jarayonining o'rganilishi, tilshunoslikda o'zlashgan so'zlarning tavsifi va tasnifi masalasi hamda so'z o'zlashtirish tillararo aloqani yuzaga keltiruvchi omil bo'lib xizmat qilishi tavsiflanadi. «*So'z o'zlashtirish tarixiy jarayonining o'rganilishi*» deb nomlangan birinchi faslda dunyo tilshunoslari tomonidan so'z o'zlashtirish jarayonining tadqiqi atroflicha yoritilgan.

Tilda mavjud so'zlarning boshqa tilga o'zlashishi tabiiy holdir. Negaki, insonlar hayoti davomida ma'lum sabablarga ko'ra o'zga tilda muloqot qiluvchilar bilan aloqasi natijasida bevosita yoki bilvosita so'zlarni o'zlashtiradi. Ingliz tiliga ham turkiy so'zlar davrlar mobaynida boshqa xalqlar bilan ijtimoiy-siyosiy, diplomatik aloqalar, savdo-sotiq, harbiy yurishlar kabi sabablarga ko'ra o'tib borgan.

Yaqin vaqtlargacha rus inglizshunosligida ingliz va turkiy tillarning o'zaro aloqasi haqidagi masalaga yetarli e'tibor berilmagan. Ingliz tili leksikologiyasi bo'yicha darsliklarda o'zlashma turkiy leksik birliklarga kam to'xtab o'tilgan. Tadqiqotchilarning aksariyati ingliz tiliga turkiy so'zlarning kirib kelishi sabablari, ularni Angliya zaminida yashovchi xalq tomonidan o'zlashtirilishi va fonetik, leksik, grammatik va semantik assimilyatsiyasi haqida to'la ma'lumot bermagan. Bu esa mazkur masalaning o'rganilishi kerakligini taqozo etadi.

So'z o'zlashtirish jarayoni geografik joylashuvi yaqin davlatlar tillarida,

tabiiyki oson kechgan. Usmoniylar imperiyasi va sharqiy O'rta yer dengizi atrofida joylashgan sharqiy davlatlar tillaridan yangi grek tilining kibr dialektiga o'zlashgan turkiy so'zlarning so'z turkumlari va mavzuiy guruhlari bo'yicha izlanishlar olib borgan E.E.Ujininning ta'kidlashicha, ingliz tiliga ko'proq ot turkumiga oid so'zlar o'zlashgan⁶. O'zlashgan ot turkumiga oid so'zlar orasida kundalik hayotda, qishloq xo'jaligida, folklorda qo'llaniluvchilar 18.9% ni tashkil etadi.

Shu o'rinda aytish kerakki, o'zlashma so'z, varvarizm, ekzotik leksika kabilar chet so'zlarning turi sifatida e'tirof etilishi mumkin. Negaki, ularning barchasi o'zlashtiriladi va qabul qiluvchi til egasi chet so'zi sifatida, qolaversa, chet tilidan kirgan yangi (neologizm) so'z deb qaraydi. Bundan tashqari, tilda qo'llanma so'zlar ham borki, ular ham o'zlashma so'z xususiyatiga ega. Fikrimizning isboti sifatida aytamizki, professor N.Uluqov ilmiy manbalarda o'zbek tilida uchraydigan chet tillariga mansub so'zlarni 1) o'zlashma so'zlar, 2) qo'llanma so'zlarga bo'ladi⁷. Qo'llanma so'zlarni kommunikativ va uslubiy vazifasiga ko'ra ikki turga bo'ladi: 1. Ekzotik leksika yoki ekzotizmlar. 2. Kiritma so'z va iboralar⁸.

Yuqoridagi fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, o'zlashma so'z bevosita va bilvosita til aloqasi orqali umumiy o'zlashtirish jarayoni mahsuli, ekzotik leksika esa o'zlashayotgan tildagi shu so'zni ifodalovchi tushunchalar majmuidir.

Bobning «*Tilshunoslikda o'zlashgan so'zlarning tavsifi va tasnifi masalasi*» deb nomlanuvchi ikkinchi faslida til aloqalari natijasida o'zlashgan so'zlarning formal, funksional va leksik-semantik turlari ko'rib chiqilgan.

Til aloqalarini tabiiy va yuzaki (sun'iy) turlarga ajratamiz. Tabiiy til aloqasi ikki til egalarining yashash hududi yaqin bo'lib, ularning muntazam muloqoti asosida, yuzaki esa ma'lum bir maqsadlarda vaqtincha muloqot qilish natijasida yuzaga chiqadi. Biz tabiiy aloqani "permanent" yoki "konstant" va yuzakini esa "temporal" yoki "kazual", "okkazonal" terminlari bilan berishni taklif etdik.

Garchi o'zbek, rus va xorij tilshunosligida olib borilgan ishlarning salmoqli miqdori mazkur mavzuga bag'ishlangan bo'lsa ham o'zlashma atamasi muammosi hali har tomonlama o'z yechimini yetarli darajada topmagan masalalardan sanaladi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, shu vaqtga qadar lingvistik adabiyotlarda "o'zlashma" atamasining bir xildagi talqini mavjud emasligi mazkur masalani aniqlashtirishga undaydi.

Xususan, G.Paul o'zlashma deganda so'zlarning keng va tor ma'nosining tillar aralashuvi natijasi deb hisoblaydi va ikkita qardosh bo'lmagan tillar, bitta tilning ikkita shevasi yoki ikkita individning aloqalari orqali so'z o'zlashtirish o'rtasiga chegara qo'ymaydi. U bitta tilning boshqasiga ta'sirining yuzaga kelishiga turtki asosan individlardan, hech bo'lmaganda cheklangan darajada bo'lsa ham ikkala tilni biluvchi individlardan kelib chiqadi, deb o'ylaydi. Bu tashqi

⁶ Ужинин Е.Е. Турецкие заимствования в языках восточно-средиземноморского ареала (языковые контакты на территории Османской империи): Автореф. дисс...канд.филол.наук. – М., 2008. – С. 9.

⁷ Улуков Н. "Мехробдан чаён" романида қўлланган арабий, форсий киритмаларнинг вазифаси ва услубий хусусиятлари. Қо'қон DPI. Илмий хабарлар. 2-2021 йун. – Б. 184-185.

⁸ Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 88.

ta'sir borgan sari tilning ichki strukturasi ham ta'sir qilishi mumkin. Shundan G.Paul o'zlashma so'z qabul qiluvchi tilda umumiy iste'molga asta-sekin kirib boradi va uning qo'llanilishini turli darajalari mavjud,⁹ deb xulosa chiqaradi.

Boshqa tilga oid so'zlarni o'zlashtirilgan, ajnabiy va o'zgalarga bo'lish tamoyili ko'p tadqiqotchilar tomonidan asos sifatida qabul qilingan. Mana shunday tasnifga ayrim rus tilshunoslari ham amal qilgan. Masalan, I.I.Ogiyenko¹⁰ boshqa tilga oid barcha so'zlarni 1) ancha oldin o'zlashtirilgan va rus tilida butunlay to'liq assimilyatsiyaga uchrab o'zinikidek bo'lib ketgan; 2) asl ajnabiy, ammo rus tilida g'oyat ko'p qo'llaniladigan so'zlar, buning natijasida ular odatiy so'z bo'lib qolgan va xalq tiliga ham o'rnashib olgan; 3) sof ajnabiy, ammo rus tilida kam qo'llaniladigan o'zlashma so'zlarga bo'ladi.

Biroq bunday tasnif jiddiy kamchiliklarga ega va tanqidga uchraydi. Boshqa tillarga oid so'zlarning chet va o'zlashmalarga bo'linishining asosiy kamchiligi shundaki, ular, odatda, yagona asosdan ajralib chiqadi. Bunday bo'linishning asosiga, eng avvalo, funksional mezon (so'zning qo'llanilishi xarakteri) qo'yiladi. "Ajnabiy so'zlar" va "o'zlashma so'zlar" atamasini qo'llovchi tadqiqotchilar esa so'zning fonetik va grammatik o'zlashtirilganligi darajasiga, ya'ni formal mezonlarga asoslanib izlanishlar olib borishadi.

Y.V.Opelbaum¹¹ ning nemis tili lug'at tarkibida sharqiy slavyan tillaridagi leksik birliklarni tadqiq qilishga bag'ishlangan ishida uchta, ya'ni formal, funksional va semantik belgilarga asoslangan sharqiy slavyan leksik birliklarining tasnifi keltirilgan.

Bu tasnifga ko'ra Y.V.Opelbaum sharqiy slavyan tillaridagi leksik birliklarni 1) internatsionalizmlar; 2) boshqa tilga oid asl so'zlar; 3) ekzotizmlarga bo'ladi.

Ushbu tasnif, fikrimizcha, Y.V.Opelbaum tomonidan uchtaga ajratilgan guruhlar o'rtasidagi chegaralarning noaniqligi sababli ozgina tushunarsizdir. Biroq Y.V.Opelbaumning ekzotik leksikani alohida mustaqil so'zlar guruhiga ajratgani juda muhimdir.

Shu o'rinda aytish kerakki, biz Y.V.Opelbaum tasnifiga to'la qo'shila olmaymiz. Negaki, internatsionalizmlar o'zlashma so'zlardan farq qiladi. Internatsional so'zlar sinxron ravishda kamida uchta tilda uchraydi, o'zlashmalar esa diaxron ko'rinishdagi hodisa bo'lib, har bir tilning o'zi uchun xarakterlidir. Shuningdek, internatsionalizmlar xalqaro doirada, o'zlashmalar esa ma'lum til doirasidagi hodisa bo'lishi mumkin.

Yuqorida ko'rsatilgan o'zlashmalarining barcha tasniflarini e'tiborga olib hamda ingliz badiiy adabiyotidagi turkiy leksik birliklarning tadqiqoti asosida biz ingliz tiliga o'zlashgan turkiy so'zlarning tasnifini berishga harakat qildik. Shuni alohida aytish kerakki, biz fikr yuritayotgan turkiy so'zlarning aksariyatining kelib chiqishi arab, fors, lotin kabi tillardan bo'lib, turk tiliga XIV-XVI asrlardan oldin kirib kelgan va turk tili orqali ingliz tiliga asosan XVI, o'zbek tilidan XXI asrdan boshlab o'zlashgan. Shunga ko'ra biz ularni quyidagicha tasnifladik:

⁹ Пауль Г. Принципы истории языка. – М., 1960. – С. 411.

¹⁰ Огиенко И.И. Иноземные элементы в русском языке. – Киев: тип. В.П.Бондаренко и П.Ф.Гнездовского, 1915. – С. 14-15.

¹¹ Опельбаум Е.В. Восточнославянские лексические элементы в немецком языке. – Киев, 1968. – С. 636.

1) turk tiliga lotin, alban, tatar tillari orqali o'zlashgan va XVI-XX asrlarda turk tili orqali ingliz tiliga o'tgan: *sherbet, arnaut, chan, shagreen, caravanserai* va b.

2) O'rta Osiyo, Kavkaz, Kaspiybo'yi davlatlaridan turk tiliga va u orqali ingliz tiliga o'zlashgan so'zlar. Bu so'zlar ingliz tili muloqotida ko'p qo'llaniladi va inglizlar uchun odatiy so'zga aylangan: *shashlik, kebab* va h.k.

Lekin "kebab" so'zi Web. lug'atida arman tilidan, ABBYY Lingvo lug'atida esa XVII asrda arab, qisman urdu, fors va turkiy tillardan ingliz tiliga o'zlashganligi izohlanadi. "Collins English Dictionary", "Cambridge Dictionary" lug'atlarida o'zbek tilidagi kabi "kabob" sifatida qo'llanilishini kuzatish mumkin.

3) XXI asrda sport sohasi orqali o'zbek tilidan o'zlashgan so'zlar: *kurash, chala, yonbosh, halol, g'irrom*:

*Kurash is a traditional form of combat of the Turkic people*¹².

«So'z o'zlashtirish tillararo aloqani yuzaga keltiruvchi sotsiolingvistik omil sifatida» deb nomlanuvchi uchinchi faslda so'z o'zlashishi til aloqasini yuzaga keltiruvchi omil ekanligi, so'z o'zlashtirilishidagi ekstralingvistik va intralingvistik sabablar xususida bahs yuritiladi.

Jamiyat dunyoqarashini me'yorlashtirishning zamonaviy sharoitida etnik identifikatsiya muammosi tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Etnolingvistik identifikatsiya jarayonlari muloqot va ijtimoiy xulq-atvor tamoyillarini tanlash va millatlararo aralashuv turlariga bog'liq.

Tillarning o'zaro ta'sirini zamonaviy nazariyasi azaldan tilshunoslar e'tiborida bo'lgan va hozirda mazkur masala turli lingvokontaktologik yo'nalishlar tizimida rivojlanishda davom etmoqda. Til aloqasining tabiatini tushunishda ularni tarixiy va tipologik nuqtayi nazardan tahlil qilish lozim.

Til aloqasining tarixiy aspekti ikki yoki undan ortiq yaqin, chegara hududda yashagan etnik jamoaning og'zaki muloqotini ko'rib chiqadi va bu aloqa tezkor ravishda iqtisodiy, maishiy kabi ehtiyojlardan kelib chiqqan holda sodir bo'ladi. Etnik guruhlar o'zaro munosabatda bo'lganda til aloqasi qator lingvistik va nolingvistik omillar ta'siri ostida nutq (etno-nutq), dialekt (etno-dialekt) ko'rinishda sodir bo'ladi. Til aloqasi jarayonida nutq sinxron, til esa diaxron aspektda yuzaga chiqadi.

Til aloqasining tipologik jihati uning asosiy parametrlarini ko'rsatish nuqtayi nazaridan amalga oshiriladi: aloqani o'rnatish usuli, aloqaning davomiyligi va barqarorligi, aloqa holatining tabiati, aloqa a'zolarining unda ishtirok etish darajasi, xalqning hududiy joylashuvi, genetik va tuzilmaviy yaqinlik, til aloqasining natijasi¹³.

Tilshunos olim G.M.Xoshimov har qanday qiyoslanayotgan yoki aloqadagi tilni lingvistik jihatdan tadqiq qilish bo'yicha 20 dan ortiq eng samarali va sinovdan o'tgan qiyosiy tipologik tahlil tamoyillarini qo'llashni tavsiya etadi¹⁴. Muallif tavsiya etilgan tamoyillar orasida taqqoslanayotgan tillarda o'zlashmalarni

¹² <https://www.youtube.com>

¹³ Лабунец Н.В. Русская географическая терминология в ситуации языкового контакта: Автореф. дисс...д-ра филол. наук. – Екатеринбург: 2007. – С. 16.

¹⁴ Hoshimov G.M. Lectures on Comparative Typology (Third edition, revised). – Andizhan, 2017. – P. 6.

(substrat/superstrat/adstrat) hisobga olish prinsipini alohida ahamiyatga molikligini ta'kidlaydi.

Ingliz tili leksikasida turkiy tillarga xos soʻzlar qatlami uchrab turadi. Bu esa tarixiy taraqqiyot natijasida xalqlarning bir-biri bilan yozma va ogʻzaki muloqoti, savdo-sotiq, diplomatik aloqalar, ijtimoiy-siyosiy jihatdan yaqinlik, qolaversa, xunn qabilalarining Yevropa mamlakatlariga yurishlari oqibatida yuzaga kelgan.

Ma'lumki, turli tillarda boshqa til ta'sirining darajasi bir xil emas. Ba'zi tillar boshqa tildagi leksik materialni erkin qabul qiladi, boshqalari esa leksik qatlamni qabul qilishga qattiq qarshilik ko'rsatadi.

Bunga, albatta, ham ichki lingvistik omillar (o'xshashlik darajasi, aloqaga kirishayotgan tillarning yaqinlik darajasi), ham ekstralingvistik omillar (ko'proq yoki kamroq til aloqalarining mavjudligi) sabab bo'lishi mumkin.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, til aloqalari 1) bilingvizmda (ikki tillikda), a) tabiiy, b) sun'iy bilingvizmda; 2) tillar va turli shevalarning siyosiy, savdo-sotiq, diplomatik munosabatlarda aloqaga kirishayotgan ikki til sohiblarining bevosita va bilvosita til aloqalari natijasida sodir bo'ladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**Tilshunoslikda til aloqalari hodisasining sotsiolingvistik aspekti**» deb nomlanadi. Bobning birinchi fasli «*Bevosita Angliya-Turkiya davlatlari tillari aloqalari*» deb nomlanib, unda bevosita Angliya-Turkiya davlatlari xalqlarining ijtimoiy, siyosiy, savdo-sotiq va boshqa aloqalari mahsuli sifatida ingliz tiliga kirib kelgan turkiy leksik birliklar xususida bahs yuritiladi.

Usmoniylar imperiyasi bilan Angliya o'rtasida dastlabki do'stona aloqalarning boshlanishi Angliyaning Turkiyadagi birinchi elchisi Vilyam Xarbornning nomi bilan bog'liq. Shu vaqtdan boshlab ingliz tiliga turk tillaridan o'zlashgan soʻzlar kira boshlagan va ularning ko'pi ingliz tilida mustahkam o'rnashib qolgan. Bu soʻzlarning semantikasi, asosan, turmushning o'ziga xosligi, o'sha davr Usmoniylar imperiyasining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq. Turkcha leksik birliklarning katta qismi ingliz tiliga yozma yo'l bilan Turkiyaning xilma-xil tasvirlarida, ingliz elchilarining kundaliklari va hisobotlari orqali, shuningdek, ingliz shoirlari va yozuvchilarining badiiy asarlari orqali kirgan.

Ingliz elchilari turkcha soʻzlarni eshitib yozishgan, natijada bir turkcha soʻz turlicha variantlarda yozilgan. Ingliz elchilari E.Barton va U.Xarbornlarning xatlarida bir qator turk soʻzlarining ko'plab dubletlari va hatto tripletlari ham uchraydi. Masalan: *chouse (chiaus, chaush)*; *bairam (holiday)*; *cadi (Cadi, cady)*; *hordia (horde, hoord)*; *Migse (Mirza)* va boshqalar¹⁵.

XVI asrda Turkiyaga kelgan ingliz savdogarlari, sayohatchilari va diplomatlari (A.Jenkinson, V.Blek, kapitan Jon Smit, Uilyam Biddulf, Richard Klark, Jorj Sendis, Jon Saris, Genri Middlton)¹⁶ o'zlari uchun noma'lum bo'lgan mamlakatning urf-odatlarini, udumlari va predmetlarini iloji boricha batafsilroq tushunishga harakat qilardi.

¹⁵ Hakluyt R. The principal navigations, voyages and discoveries of the English nation. London, 1589, Volumes I-VIII. Бундан буён ушбу ишга мурожаат қилганда Rich. Hak. қисқартмасидан фойдаланамиз.

¹⁶ P.P. даги хатлар ва ҳисоботларга қаранг., Vol. I-XX.

O'sha paytlarda ingliz yozuvchilari o'z asarlarida borgan sari ko'proq turkiy so'zlarni qo'llay boshlaydilar. Misol uchun, X.Marlo A.Temur haqidagi syujetdan foydalanib, 1586-yili "Buyuk Temurlang" (*Tamburlane the Great*)¹⁷ dramasi yozadi. Bu dramada X.Marlo ilgari o'zlashtirib olingan "turk" so'ziga -ess suffiksini qo'shish orqali hosil qilingan "turkess" so'zini birinchi marta qo'llaydi.

X.Marloning sharofati bilan turkiy tillardan o'zlashgan boshqa mualliflar tomonidan ingliz tiliga kiritilgan bir qator so'zlar ingliz tilida mustahkam o'rnashib oldi. Bularga *cham, tartar, soldan, bassa, turk, janissary, sarell (seraglio), turkey carpets* va boshqalarni kiritish mumkin.

Buyuk ingliz dramaturgi Uilyam Shekspirning ijodi ham ayrim turkiy so'zlarning ingliz adabiy tiliga kirib kelishiga va mustahkam o'rnashib olishiga ko'maklashdi. U.Shekspirning asarlarida kelib chiqishi turk tilidan bo'lgan quyidagi so'zlarni aniqladik: *ottomite, turkish, fleet, to turn turk (musulmon bo'lmoq), caviare, sultan* va boshqalar.

XVII asrda turk leksik birliklarining ma'lum qismi ingliz tiliga Turkiya bilan savdo-sotiq qiluvchi savdogarlarning xatlari orqali o'tadi. Unda o'sha davrning Usmoniylar imperiyasidagi tabaqa va sinflarning ta'rifiga va turkcha taomlar, ichimliklar nomlariga katta e'tibor qaratiladi: *agha, subashi, mufti, beg, emir, pilaff, sherbet, raki* va h.k.

XVIII asrda kitob chop qilishning rivojlanishi sababli Turkiyaning etnografik va tarixiy tasvirlari bilan bog'liq juda ko'p kitoblar paydo bo'ldi. Albatta, M.Vinsentning uch tomli kitobida uchraydigan so'zlar orasida ingliz tiliga oldinroq kirgan va lug'atlarda qayd qilingan (*aga, beglerbeg, cadilesker, visir, caimakam, bashaw* va boshqalar), shuningdek ingliz tili sohiblariga mutlaqo tanish bo'lmagan va natijada leksikografik adabiyotda o'z aksini topmagan bir qator so'zlar ham qo'llaniladi. Ularga quyidagi so'zlarni kiritish mumkin: *baltadji* (a street porter), *topachis* (officers of the janissaries), *defterdar* (the great treasurer of the Ottoman empire) va boshqalar.

XIX asrda ko'p turk so'zlarini ingliz adabiyotiga o'zlashishida J.G.Bayronning xizmati benihoyadir. Turkcha so'zlar hozirgi kunda ham saqlanib qolgan. Bular *calpack, chibouk, galionjee, Horde* (verb), *Jelick* kabi so'zlardir.

Ayrim turkiy so'zlar J.G.Bayronning qo'llashida yangi semantik qamrovni qo'lga kiritadi. Misol uchun, "serai-saroy" so'zini J.G.Bayron "haram" ma'nosida qo'llaydi.

XIX asrda U.M.Tekkereyning sharofati bilan ingliz tiliga turkiy so'zlarning ko'plab soni o'zlashadi va ular ingliz tili leksikasida mustahkam o'rnashadi. Masalan: *paposh, narghile, pasha, vizier, tulip, bey, sultan, beydom, sanjak, odalisque, aga, yataghan, divan* va boshqalar.

Bir qator turkiy so'zlarni biz Sh.Bronte asarlarida ham qo'llanilganini uchratamiz: *The Grand Turk, seraglio, harem* va b.

Bizning tadqiqotimiz materiallari shundan dalolat beradiki, Ch.Dikkensning ijodi turkiy o'zlashmalarning ingliz tiliga kirib kelishida asosiy yo'llardan biri hisoblangan. Misol uchun, Ch.Dikkens tomonidan birinchi bor "kybosh",

¹⁷Marlowe Ch. Tamburlane the Great. (2 parts). London: Archive Classics, 1586. – 201 p.

“Turkey-carpened” soʻzlari qoʻllanilgan.

Shunday qilib, turk leksik birliklarining ingliz tiliga kirish yoʻllarining tadqiqoti shuni koʻrsatadiki, bevosita ingliz-turk tillari aloqalari Angliya va Turkiyaning toʻrt yuz yil davomidagi ijtimoiy-tarixiy aloqalarining natijasi boʻldi.

Bobning ikkinchi fasli «*Bevosita Angliya-Oʻrta Osiyo davlatlari tillari aloqalari*» deb ataladi.

Oʻrta Osiyo va Angliya xalqlarining savdo-sotiq, tarixiy va siyosiy aloqalari natijasida tillarning oʻzaro aloqalari uchun qulay sharoitlar yaratildi. Bu mamlakatlarning toʻrt yuz yillik aloqalari davomida ingliz adabiy tiliga Oʻrta Osiyo leksik birliklarining koʻp miqdori kirib keldi.

Sayohatchilar va savdogarlar yozma xatlarining tahlili shuni koʻrsatadiki, ularda mahalliy turmushning predmetlarini va urf-odatlarini bildiruvchi juda koʻp soʻzlar va soʻz birikmalari qoʻllanilgan. Shu soʻzlar maʼnosiga yaqin turuvchi inglizcha soʻzlar boʻlmagani uchunmi ular turkiy jarangda yozilgan. Turkiy tillardan kelib chiqqan soʻzlarning qayd qilinishi, taxminiy maʼlumotlarga koʻra, eshutilishi boʻyicha amalga oshirilgan. Bu haqida bitta soʻzning bir necha variantlarda yozilishi guvohlik beradi. Misol uchun, A.Jenkinson va R.Jonsonning qaydlarida bir qator turkiy soʻzlarning yozilishida xilma-xil variantlar uchraydi: *tolmach, talmach; Tashkand, Tashkent; Uzbeg, Usbek; herd, hoord, hearde; Cassan, Casan, Cazan, Cassane*¹⁸ va boshqalar.

1601-yilda ser Antoni Shirli yordamchisi Uilyam Peris bilan Kaspiy dengizi boʻylab sayohatni amalga oshiradi. 1625-yilda uning bu joylarni borib koʻrganligi haqidagi taassurotlari chop etiladi va unda u turkiy tillardan kelib chiqqan quyidagi soʻzlarni qoʻllaydi: *mirza, toman, Astracan, Tartars, Turcomans, soldan, Turkess*¹⁹.

Shu yerning oʻzidayoq, tatarlarning turmushini tasvirlab, u birinchi marta paxsa uyning taʼrifini beradi:

"Devers Tartars passing from place to place about that River, living in little Houses made upon Wheelles, and are carryed too and fro, having abundance of Cattail, live so in subjection to the Emperour, paying him Tribute". (Purchas S. Vol. VIII. – P. 443)

1596-yilda Volga boʻylab sayohat qilgan kapitan Jon Smitning xatlarida quyidagi turkiy soʻzlar qoʻllanilgan: *sarbuse, pillow, hordia, Crimme, Tartar, Edle* (Volga daryosining turkcha nomi), *Nagayn, Cazanite*²⁰ va boshqalar.

V.Rubrikas birinchi marta “qimiz” (cosmos, koumiss) soʻzini qoʻllaydi va mazkur soʻz Webster va NED lugʻatlarida 1598-yilda ingliz tiliga tatar>fransuz tillari orqali oʻzlashgani qayd qilingan. Mazkur soʻz vaqt oʻtib inglizlar tomonidan muloqotda kam qoʻllanilganligi sababli eskirgan soʻzga aylandi hamda asta-sekin ingliz tili leksikasi tarkibida qoʻllanilishdan chiqib ketgan. Quyidagi misolda “qimiz” soʻzi inglizcha matnda qoʻllanilganligining guvohi boʻlamiz:

¹⁸ Rich. Hakl. Prin. Nav., Vol. 1-8, London, 1599.

¹⁹ P.P. Vol. VIII. – P. 389-405.

²⁰ P.P. Vol. VIII. – P. 338.

Cosmos: “*Their drinke, called Cosmos, which is Mares milke, is prepared after this manner*”. (Purchas S. Vol. XI. – P. 14)

Shuningdek, ilk bor V.Rubrikasda biz “ayron” so‘zining qo‘llanganini uchratamiz:

“*Neither did they allow us any food but Cowes Milke only, which was very soure and filthy*”. (Purchas S. Vol. XI. – P. 29)

Ingliz zobiti M.Elfinston boshchiligidagi missiya Hindistondan Afg‘onistonga olib boradigan yo‘llar va bu mamlakatga aloqador qator muzofotlarni maxsus o‘rganib chiqqan, ingliz siyosiy tuzog‘iga ilingan afg‘on amiri Shujoul-Mulk (1803-1809, 1839-1842) bilan shartnoma imzolab, bu mamlakatda o‘z ta‘sirini bir qadar mustahkamlashga muvaffaq bo‘lgan edi²¹. Afg‘oniston o‘zaro kurashlar natijasida bir-birini tan olmaydigan bir necha bo‘lakka bo‘lingan, inglizlarning sodiq do‘sti Shujoul-Mulk Kobuldan quvilgan va u o‘z homiylari panohida jon saqlab turardi. Shuning uchun ham Buyuk Britaniya asosiy e‘tiborini O‘rta Osiyoga, to‘g‘rirog‘i, u yerdagi kuchli davlatlardan biri - Buxoro bilan bevosita aloqa o‘rnatishga qaratadi.

Shu maqsadda inglizlar O‘rta Osiyoga Mir Izzatulloh rahbarligida maxsus ta‘limdan o‘tgan musulmon mutaxassislar guruhini yo‘llaydi. Bu safar haqidagi barcha ma‘lumotlar Mir Izzatullohning yo‘l xotiralarida o‘z aksini topgan bo‘lib, uning asosiy mazmuni Ovrupo tillariga bir necha bor tarjima qilingan va chop etilgan²². Ammo inglizlar bir vaqtning o‘zida Buxoroga yana bir vakil - Hofiz Muhammad Fozilxon degan elchini ham yuborganlari to‘g‘risida keyingi vaqtlargacha adabiyotlarda e‘tiborga molik ma‘lumot bayon qilinmagan²³.

1858-yilda sharqiy Qozog‘istonning hududida, Tarbagatay tog‘larida, Olako‘l ko‘lida, Ola-Tovi tog‘larida bo‘lgan Tomas Atkinsonning sayohatlar kitobi chop etildi²⁴. U ingliz kitobxonlarini yangi predmetlar, tushunchalar bilan tanishtirdi.

A.Jenkinsonning sayohatidan boshlab O‘rta Osiyoga qiziqish so‘nmadi, bu haqida shu joylarni borib ko‘rgan ingliz sayohatchilarining bir qator etnografik tasvirlari, hisobotlari va kundaliklari guvohlik beradi²⁵.

O‘rta Osiyoda va Qozog‘istonda bo‘lgan ko‘p savdogarlar va sayohatchilar o‘zlarining yozuvlarida faqat ayrim so‘zlarni (*salam, joch, aksakal* va boshqalar) emas, balki qozoq va o‘zbeklarga xos bo‘lgan so‘zlar va iboralarni ham (*Aman bul, Kim biler, Hosh keldinez, Olla Billa* va boshqalar) ishlatdilar.

²¹ Ўзбек дипломатияси тарихидан (Тарихий очерк ва лавхалар). Академик М. Хайруллаев умумий таҳрири остида. – Тошкент: ХЕГА–ПРИНТ, 2003. – Б. 121.

²² Ўзбек дипломатияси тарихидан. Кўрсатилган манба. – Б. 122. Қаранг: “Трудь! САГУ, История Средней Азии и Узбекистана.” Новая серия. Вып. XXVIII, кн. 11. – Ташкент: 1956, - С. 41-52, Вып. XIX, кн. 14, Т., 1957. – С. 193-217.

²³ Ўзбек дипломатияси тарихидан. Кўрсатилган манба. – Б. 122.

²⁴ Atkinson T.W. Oriental and Western Siberia: a narrative of seven Dears Exploration and adventures in Siberia, Mongolia the Kirghis Steppe, Chinese, Tartary and part of Central Asia. – N.Y.: Forgotten Books, 1856. – 544 p.

²⁵ Ewart W. Settlement in India and Trade with Central Asia. – London: Ridgway. 1858. – 670 p; Hutton J. Central Asia from the Aryan to Cossack. – London: Tinsley brothers, 1875. – 665 p; Spalding H. Khiva and Turkestan. – London: Chapman and Hall, 1874. – 248 p; Schuyler E. Turkestan. Notes of Journey in Russian Turkestan, Khokand, Bukhara and Kubja. – New York, Scribner, Armstrong & co., 1876. – 503 p; Burnaby F. A Ride to Khiva. Travels and Adventures in Central Asia. – London, Paris & New York: Cassell, Petter, Galpin & Co, 1879. – 469 p.

1917-yildan keyingi davrda ingliz adabiy tiliga sobiq Sovet Ittifoqi xalqlarining turkiy tillaridan turkiy xalqlar va qabilalarni bildirish uchun xizmat qiluvchi etnonimlarning katta qismi kirib keladi. 1888-1933-yillarda nashr qilingan NED lugʻatida turkiy xalqlar va millatlarning koʻp nomlari qayd qilinmagan boʻlsa ham Webster lugʻatining oxirgi nashrida (1967-yil) quyidagi turkiy etnonimlar qayd qilingan: *Karakalpak, Kumyk, Tungus, Turkmen, Uzbek, Uigur, Yakut* va boshqalar.

Agar inglizlar ilgari qozoqlar, qirgʻizlar va boshqa turkiy xalqlarni farqlamagan va ularning mavjudligi haqida bilmagan boʻlsalar, endilikda Angliya va AQShda Oʻrta Osiyo respublikalari xalqlarining iqtisodi va madaniyatini, shuningdek, tarixiy oʻtmishini muntazam yorituvchi maxsus jurnallar nashr qilinadi (masalan, “Central Asiatic Journal”, “Central Asian Review” va boshqalar).

Shunday qilib, yuqorida bayon qilinganlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, Oʻrta Osiyo leksik birliklari ingliz tiliga bu joylarni kelib koʻrgan inglizlarning kundaliklari, yoʻl haqidagi ocherklari, hisobotlari hamda etnografik taʼriflari orqali kirib kelgan.

«*Bilvosita ingliz-turkiy tillari aloqalari*» deb atalgan uchinchi faslda bilvosita ingliz-turkiy tillari aloqalari natijasida ingliz tiliga oʻzlashgan turkiy soʻzlar tahlilga tortilgan.

Vositali yoʻl orqali turkiy leksik birliklar ingliz tiliga fransuz, rus, italyan, nemis, ispan, lotin, serb-xorvat, hind, polyak, venger, fors, yunon, rumin kabi tillar orqali oʻzlashgan.

Tipologik jihatdan ingliz tilida turkiy oʻzlashtirmalarning butun lugʻat fondini bevosita til orqali oʻzlashtirilgan, maʼlum darajada assimilyatsiyaga uchragan turkiy leksik birliklarga hamda vositachi til orqali oʻtgan, ammo oʻzining asl shakli va maʼnosini oʻzgartirmagan, yaʼni assimilyatsiyaga uchramagan soʻzlarga ajratish mumkin.

Turkiy soʻzlarning ayrim qismi oʻzining turkiy tildan kelib chiqqanligini shunchalik saqlab qoladiki, buni hatto tilshunos boʻlmagan shaxs ham aniqlay oladi. Bularga quyidagi soʻzlarni misol qilib koʻrsatishimiz mumkin: *koumiss, Bukeef, orta juz, kalim, kok-saghyz, aksakal, airan, odalisque, nargile* va boshqalar.

Turkiy soʻzlarning ushbu guruhining farq qiluvchi jihati shuki, ular vositachi tilda yangi maʼnolarni qoʻlga kiritmaydi va ingliz tiliga dastlabki turkiy maʼno bilan oʻtgan. Haqiqatan, “aul” soʻzi ingliz tiliga rus tili orqali turkiy xalqlarning hayoti uchun xarakterli boʻlgan “qishloq”ni bildirish uchun kirib keladi:

“No”, said the guide, “we will go to Kalenderhana, and then from my aul to the fort” (F.Burnaby. – P. 234)

Ingliz tiliga fransuz tili orqali kirib kelgan turkiy oʻzlashma soʻzlarning katta qismi fransuz tilining ham fonetik, grammatik, ham semantik jihatdan taʼsirini boshdan kechirmadi, yaʼni fonetik, grammatik va semantik assimilyatsiga uchramadi. Ularga *sultan, janissary, caracal, shebek, fandour, timariot, koumiss, narghile, cham, caftan* kabi soʻzlarni kiritish mumkin. Bu turkiy soʻzlarning

fransuz tilida qoʻllanilish sohasi maʼlum tematika bilan chegaralanganligiga bogʻliq boʻlishi mumkin. Ular maʼlum stilistik maqsadlarda, chunonchi matnga maʼlum mahalliy kolorit bagʻishlash maqsadida ishlatilgan.

Shuni alohida aytish kerakki, ingliz tiliga vositachi til, jumladan, fransuz tili orqali oʻzlashgan maʼlum soʻzlar fonetik assimilyatsiyaga uchrasa-da, ularning semantik qamrovi aslidagidek qoladi va ular vositachi tilda (fransuz tili) ham, manba tilda (ingliz tili) ham turk voqeligini aks ettirish uchun qoʻllaniladi.

Ikkinchi guruhning koʻpchilik turkiy soʻzlari vositachi tilning tizimiga shunchalik mustahkam kirib borganki, ularning turkiy tillardan kelib chiqqanligini faqat etimologik tahlil asosida aniqlash mumkin.

Bunday turkiy soʻzlarning koʻpchilik qismi XVI asr rus davlatining hayoti, turmushi va urf-odatlarini tasvirlovchi G.Fletcherning asarida uchraydi²⁶:

Cabask: *In every great towne of his Realme he hath a Caback or drinking house, where is sold aquavita (which they call Russe wine), meat, beere*” (G.Fletcher. The History of Russia. – P. 44);

Alteen: *“Of all these grains the country yieldeth very sufficient with an over plus quantitie, so that wheat is sold sometime for two alteens or ten pence starling the chitfird, which maketh almost three English bushels”*. (G.Fletcher. The History of Russia. – P. 14).

Ingliz-turkiy tillari aloqalari natijasida soʻz oʻzlashtirish bevosita va bilvosita til aloqalari orqali paydo boʻlgan. Bu vositalar turkiy leksik birliklarni ingliz tilining lugʻat tarkibiga kirishida muhim ahamiyat kasb etdi.

Tadqiqotning uchinchi bobi «**Ingliz tilida turkiy oʻzlashmalarning struktur-morfologik, xronologik va mavzuiy jihatdan tavsifi va tasnifi**» deb nomlanadi.

Bobning birinchi fasli «*Ingliz tilidagi oʻzlashgan turkiy soʻzlarning struktur-morfologik jihatdan tavsifi va tasnifi*» masalasiga bagʻishlangan.

Ingliz tilining taraqqiyoti jarayonida oʻzlashgan turkiy soʻzlarning leksik-semantik va fonetik, grammatik jihatlari qabul qiluvchi tilning meʼyoriga asta-sekin moslashib bordi. Grammatik moslashuvda qoʻyidagi oʻzgarishlar sodir boʻldi:

1. Ikki mustaqil maʼnoli soʻz bir morfema holiga keldi: *bam+bosh, coffee+bush*.

2. Mustaqil soʻz oʻz maʼnosini yoʻqotib affiksga aylandi. Masalan, ashtarchan soʻzidagi –chan affiksi aslida xon maʼnosini bildirib, keyinchalik inglizlar ayollar ismiga hurmat maʼnosini ifodalash uchun qoʻllanilishini tushunishgan.

Sodda soʻzlarga sodda va qoʻshma strukturali affikslar qoʻshilgan. Sodda affikslarga –ist, -ism, -dom, -ite, -ic, -ed, ed, -s (*turkism, Turcic, tulipist, pashadom*), qoʻshmalarga esa –ishly, -ishness (*turkishly, turkishness*) kabilarni kiritish mumkin.

a) sodda soʻzlar

²⁶ Fletcher G. The History of Russia or the Government of the Muscovia with the manners and fashions of the people of that country. – London: EEBO Editions, ProQuest, 1675. – 318 p.

Turkiy o‘zlashmalarning asosiy qismini (239 ta) sodda so‘zlar tashkil qiladi. Bu shu bilan izohlanadiki, ingliz tiliga ko‘pincha qandaydir yangi predmet yoki hodisani nomlovchi sodda so‘zlar (*dey, boza, oka, horde* va b.) o‘zlashtirilgan. Manba tilda hosila va qo‘shma so‘z hisoblangan so‘zlarning ba’zi bir qismi ingliz tilida sodda so‘zlar ko‘rinishiga o‘tadi.

Ingliz tiliga o‘zlashgan “Tamerlane” so‘zi, aslida so‘z birikmasi sifatida aniqlanmish+aniqlovchi strukturasi bilan tashkil topgan. Lekin mazkur so‘z ingliz tilida grammatik assimilyatsiyaga uchrab sodda so‘zga aylanib ketgan. “Tamer” va “lane” ingliz matnlarida yakka holda ishlatilmaydi:

Ahmet Ebn Yufeph relates, that Tamerlane sent him very haughty menacing Letters, to which he answered with the utmost Contempt. 'Tis related of him, that he should say, he did not fear Lencus, that is, Tamerlane; (Ch. Perry. View of the Levant. – P. 292)

b) yasama so‘zlar

Sodda turkiy so‘zlar ingliz tiliga o‘zlashgach, grammatik assimilyatsiyaga uchrab, ingliz tilidagi shakl yasovchi va so‘z o‘zgartiruvchi qo‘shimchalarni olgan. Masalan, *tartar, turk, hunn, sultan* kabi so‘zlar ko‘plik yasovchi qo‘shimcha bilan bir qatorda artikl bilan ham qo‘llanilgan:

The Turks had formerly been governed by many Kings or Sultans at one and the same time. (Ch. Perry. View of the Levant. – P. 2)

Hosila turkiy so‘zlarning tahlili turkiy o‘zlashmalardan fe’llar va ravishlarning suffiksial yasalishi ancha darajada kam bo‘lganini ko‘rsatadi. Izlanishimiz davomida biz faqat bir nechta fe’llarni (*turkicize, turkize, vampirize, sultanize*) va bitta ravishni (*turkishly*) aniqlashga muvaffaq bo‘ldik, xolos.

d) qo‘shma so‘zlar

Turkiy tillardan ingliz tili leksik qatlamiga kirgan qo‘shma so‘zlar o‘zlashgan so‘zlar ichida ko‘p miqldan tashkil qiladi (80 ta). Bularga *bambosh, coffee-room, pasha-like, turko-tatar, sherbet-powder* va boshqa so‘zlarni kiritish mumkin.

Turkiy o‘zlashmalarning ishtiroki bilan hosil qilingan qo‘shma so‘zlar, asosan qo‘shma otlarni tashkil qiladi. Bunday so‘zlar ikki ot o‘zak (*coffee-man, tulip-flower, sherbet-powder*), sifat yoki ravish o‘zak bilan birlashuvidan hosil bo‘lgan: *bambosh, sultanlike, pashalike* va boshqalar.

Izlanish davomida biz faqat bitta *turko-tatar* qo‘shma sifatini aniqlashga muvaffaq bo‘ldik.

Gibrid qo‘shma so‘zlarning grafik shakllanishi har xil yo‘llar bilan ifodalangan: ayrimlari qo‘shib (*bambosh, coffeepenny*), boshqalari esa defis orqali (*jackal-headed, tulip-tree*) yoki ajratib yozilgan (*kura clover, turkish bath*).

Professor G.M.Xoshimov hind-yevropa va turkiy tillardagi qo‘shma so‘zlarning struktur jihatlarini qiyoslar ekan, "root+infix+root" tuzilishidagi so‘zlar qo‘shma yasama qolipli bo‘lib, ular turkiy tillarga unchalik xos emas, balki arab yoki fors tillaridan o‘zlashgan, deydi²⁷. Masalan: *turq-tarovat, azob-uqubat*.

e) so‘z birikmalari

Turkiy o‘zlashmalar asosida hosila va qo‘shma so‘zlarni yasashdan tashqari,

²⁷ Hoshimov G.M. Lectures on Comparative Typology (Third edition, revised). – Andizhan, 2017. – P. 82.

ular, shuningdek, soʻz birikmalarining tarkibiga ham kirgan. Soʻz birikmalarining katta qismi turk modeli tarjimasining natijasini namoyon qiladi.

Soʻz birikmalarining tahlili shuni koʻrsatadiki, kalka soʻz birikmalari turkiy tillardan ingliz tilining grammatik va leksik qonunlariga amal qilingan holda tarjima qilingan. Oʻzlarining shakllanishi boʻyicha kalka soʻz birikmalari turli-tuman boʻladi:

1) turkiy soʻz birikmalar ingliz tiliga turkiy tillardan oʻzlashtirilgan soʻzlar bilan tarjima qilinadi: *kazantatar, kiskilim, karakirghiz* va boshq;

2) soʻz birikmasining tarkibiy qismlaridan biri inglizcha boʻladi: *Tartar house, turkish bath* va h.k.

Shuningdek, soʻz birikmaning struktural-morfologik tuzilishi quyidagicha koʻrinish olgan:

1. Sifat (Turkish)+ot:

... *that we shall give a History of the Turkish Empire in Detail*,... (Ch. Perry. View of the Levant. – P. 1)

2. Predlog+ot:

... *Courage and Conduct, went a great way in repairing the sinking State and Fortune of the Turks*: ...

Shunday qilib, turkiy oʻzlashmalarining struktur-morfologik tasnifi shuni koʻrsatadiki, ingliz tilining lugʻat tarkibi sodda soʻzlarning oʻzlashtirilishi hisobiga, shuningdek, turkiy oʻzlashmalar asosida yasama, qoʻshma soʻzlarning va soʻz birikmalarining yasalishi hisobiga boyigan.

Bobning ikkinchi fasli «*Ingliz tiliga oʻzlashgan turkiy leksik birliklarning xronologik tavsifi va tasnifi*» masalasiga bagʻishlanadi.

Ingliz tili lugʻat tarkibining tarixiy dinamikasi oʻzlashgan soʻzlarning aksariyati sharqiy davlat tillari, ayniqsa, turkiy tillardan ekanligini koʻrsatadi.

Biz tadqiqotimiz davomida XIV asrdan XXI asrgacha boʻlgan turli davrlarda ingliz tiliga turkiy leksik birliklarning kirib kelish miqdori turlicha manzara kasb etganligiga guvoh boʻldik.

Masalan, XIV asrda ingliz tiliga 3 ta, XV asrda 6 ta, XVI asrda ingliz tiliga 56 ta; XVII asrda 101 ta; XVIII asrda 55 ta; XIX asrda 174 ta; XX asrda 182 ta, XXI asrda 5 ta turkiy soʻzlar kirib kelgan. Shunday qilib, mana shu davrda ingliz tiliga 582 ta, umuman olganda, XIV-XXI asrlarda ingliz tilining etimologik va izohli lugʻatlari tomonidan qayd qilingan 582 ta turkiy leksik birliklar oʻzlashgan.

Shubhasiz, ingliz tiliga kirib kelgan turkiy leksik birliklar statistikasining oʻzi oʻzlashtirish jarayonini xarakterlamaydi. Ammo xronologik tasnif manba tilning retseptor tilga davrning u yoki boshqa oraligʻidagi taʼsiri haqida taxmin va xulosalar qilishga imkon beradi.

Masalan, XVI asrda taom va ichimliklar nomini bildirish uchun ingliz tiliga coffee, caviare, raki, koumiss kabi soʻzlar oʻzlashtirildi.

XVII asrda Turkiya va Turkiyaning boshqaruvi ostida boʻlgan bir qator davlatlarning ijtimoiy va siyosiy tuzilishi bilan bogʻliq yetarli darajada koʻp miqdordagi soʻzlar kirib keldi. Bular quyidagi turkiy soʻzlardir: *agha, beg, beglie, cadilesker, ban, ottoman, pasha, sultaness* va boshqalar.

XIX asrda ingliz tili leksikasi o‘simlik va hayvonot olami sohasidagi bir qator nomlar bilan boyidi: *saiga, saxaul* va h.k.

XX asrda turkiy xalqlar va qabilalarni anglatuvchi *Uzbek, Balkar, Kirghiz, Kazakh, Karakalpak, Uigur, Tungan, Jakut* etnonimlarining bir necha guruhi kirib keladi.

Shunday qilib, ingliz tilidagi turkiy leksik birliklarning xronologik tasnifi shuni ko‘rsatadiki, XIV asrdan XXI asrgacha bo‘lgan davrda turkiy o‘zlashmalarning kirib kelishi bir tekisda kechmagan: eng intensiv o‘zlashtirish XX asrda sodir bo‘lgan (182 ta leksik birliklar, ya’ni 31.3%), XX asrgacha turkiy leksik birliklarning ingliz tiliga kirib kelishidagi pasayish darajasi XVIII asrda bo‘lgan (55 ta leksik birliklar, ya’ni 9.5%).

«Ingliz tilidagi turkiy o‘zlashmalarning mavzuiy guruhlariga ko‘ra tasnifi» deb nomlanuvchi uchinchi faslda ingliz tiliga o‘zlashgan so‘zlarning leksik-semantik xususiyatiga ko‘ra tematik turlari va ularning lug‘atlarda qayd qilinishi xususida bahs yuritiladi.

Ingliz tiliga o‘zlashgan turkiy terminlar haqida to‘xtalganimizda, shuni aytish mumkinki, ularning qo‘llanilish sohasiga qarab quyidagi katta va kichik guruhlarini ajratish imkonini berdi:

A. Ijtimoiy-siyosiy terminlar.

Turkiy so‘zlarning bu guruhi quyidagi kichik guruhlariga ajratiladi:

a) ma‘muriy, boshqaruv va yuridik terminlar; b) davlat tashkiloti va lavozimlar ierarxiyasi; d) xonlar va xonliklar nomlari; e) harbiy terminlar; f) din bilan bog‘liq terminlar; g) sport sohasiga oid terminlar; h) kasb, hunarni bildiruvchi terminlar.

B. O‘rab turgan tabiatning tasviri bilan bog‘liq terminlar.

Turkiy o‘zlashmalarning bu guruhi ham a) o‘simlik va hayvonot olamini aks ettiruvchi turkiy so‘zlar; b) foydali qazilmalar va ba’zi bir tabiat hodisalarining ta’rifi bilan bog‘liq atamalar kabi kichik guruhlariga ajratiladi.

D. Og‘irlik, uzunlik o‘lchovi, pul birliklarini anglatuvchi terminlar.

Turkiy metrologik atamalar, shuningdek, boshqa xalqlarning pul birliklari nomlari ingliz tiliga o‘zgarishsiz qabul qilingan. Masalan, altyn, tilla, arsheen, medjadie, toman, sultanin, batman kabi turkiy nomdagi o‘lchov birliklari ingliz o‘lchovlari bilan o‘lchovdosh emasliklari tufayli ingliz tilida ekvivalentlarni topish qiyin bo‘ldi.

E. Predmet nomlari.

Bu guruhni ham a) taomlar va ichimliklar; b) gazlamalar, kiyim-kechak, taqinchoqlar, mo‘ynalar; d) gilamlar, jihozlar; e) harakatlanish vositalari, transport; f) arxitektura inshootlari va binolar; g) cholg‘u-asboblari nomlarini bildiruvchi kichik guruhlariga bo‘linadi.

F. Toponimik va etnonimik nomlar ham o‘z navbatida a) millat, elat va xalq; b) joy; d) daryo; e) ko‘l; f) dengiz; g) shaxs nomlarini bildiruvchilarga ajratiladi.

Tadqiqotning to‘rtinchi bobi «**Zamonaviy ingliz tilidagi turkiy o‘zlashmalarning assimilyatsiya darajasi bo‘yicha tasnifi**» deb nomlanadi. Bobning «*Hozirgi zamon ingliz tilidagi turkiy o‘zlashmalarning fonetik*

assimilyatsiyasi» nomli birinchi faslida hozirgi zamon ingliz tilidagi turkiy o‘zlashmalarning fonetik assimilyatsiyasi xususida so‘z yuritiladi. O‘zlashgan so‘zlar assimilyatsiyasi masalasi doimo tadqiqotchilar diqqat markazida bo‘lgan.

O‘zlashtirma so‘zning fonetik jihatdan moslashuvi ko‘p qirrali va murakkab hodisadir. Ingliz tilidagi turkiy so‘zlarlarda urg‘uning o‘rni va xarakteri o‘zgaradi. Bu aloqa qilayotgan ikkala tilning aksentologik modellaridagi farqlarga bog‘liqdir.

Ingliz tilida “sh” digrafi transkripsiyada /ʃ/ ko‘rinishida berilib, ushbu tovush o‘zbekcha undosh harf birikmasi “sh”ga mos keladi. Masalan:

o‘zbekcha *Qarshi* → inglizcha *Karshi*

O‘zbek tilining farq qiluvchi o‘ziga xos xususiyati hozirgi o‘zbek alifbosida “g” bilan belgilanadigan bo‘g‘izda hosil bo‘ladigan tovushlarning mavjudligi hisoblanadi.

O‘zbekcha “g” undosh harfi ingliz tilida asosiy grafik moslik “g” monografi bilan ifodalanadi. Masalan: o‘zbekcha *og‘a* → inglizcha *aga*.

Ammo ko‘pincha o‘zbekcha “g” undosh harfi inglizcha “gh” digrafi bilan ham ifodalanadi. Masalan: o‘zbekcha *chig‘atoy, Marg‘ilon, Farg‘ona* → inglizcha *chighatay, Marghilan (Marghinan), Farghana*.

Turkiy tillardagi “k” undosh harfi ingliz tilida “k”, “g”, “c” monograflari, “ch”, “ck”, “kh” digraflari va “que” trigrafi bilan ifodalanishi mumkin.

O‘zbekcha “h”, “x” undosh harflari ingliz tilida “h”, “c” monograflari va “kh” digrafi ko‘rinishida ifodalanishi mumkin: o‘zbekcha *Abdurahmon, Buxoro* → inglizcha *Abdurakhman, Bocara, Bukhara*.

O‘zbekcha “s” undosh harfi inglizcha “s” monografiga mos keladi. Masalan: o‘zbekcha *salla* → inglizcha *salla*; o‘zbekcha *supa* → inglizcha *supa*. Ba’zi bir hollarda o‘zbekcha “z” harfi inglizcha “s” monografi bilan ifodalanadi, masalan: o‘zbekcha *o‘zbek* → inglizcha *Usbek*.

Yuqoridagi fikrga xulosa sifatida o‘zbekcha “s” undosh harfi ingliz tilida “s” va “z” va aksincha, o‘zbekcha “z” inglizcha “s” grafemalariga teng keladi, deb aytish mumkin.

O‘zbekcha “v” undosh harfiga ingliz tilida “v” monografi mos keladi. Masalan: o‘zbekcha *suvchi, viloyat* → inglizcha *suvchi, vilayet*.

Ba’zida o‘zbekcha “v” undosh harfi ingliz tilida “f, u, v, w” grafemalari orqali ifodalanadi, masalan: o‘zbekcha *palov* → inglizcha *pilaf, pilau, plov, pillaw*.

O‘zbekcha “f” undosh harfiga inglizcha “f” monografemasi to‘g‘ri keladi. Masalan: o‘zbekcha *fotiha, safar* → inglizcha *fatihah, safar*.

Ba’zi bir hollarda o‘zbekcha “f” undosh harfi ingliz tilidagi “ph” ko‘rinishidagi digraf orqali ifodalanadi. Masalan: o‘zbekcha *halifa* → inglizcha *caliph*.

Shunday qilib, biz tadqiq qilgan material shuni ko‘rsatadiki, hozirgi ingliz tilidagi ko‘plab turkiy, jumladan, o‘zbek so‘zlari grafik jihatdan xuddi qadimdagi ko‘rinishi kabi shakllangan.

Bobning ikkinchi fasli «*Ingliz tilidagi turkiy o‘zlashmalarning leksik-semantik assimilyatsiyasi*» deb ataladi.

Qabul qiluvchi tilda leksik-semantik o'zlashtirilish deganda uning so'z yasashdagi faolligi, retseptor tilning so'zlariga aralashib ketishi, retseptor tilda yangi so'zning manba tildagi ma'nosi bilan hech qanday aloqasi bo'lmagan ma'noni ifodalanishining semantik strukturasidagi qayta o'zgarishlarni tushunamiz.

Ingliz tiliga o'zlashgan turkiy so'zlarning aksariyati uchun suffiksatsiya so'z yasashning eng sermahsul usuli ekanligi tadqiqotimiz davomida o'z isbotini topdi.

Suffiks yordamida so'z yasash ingliz tilida uzoq vaqtlardan beri o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Ingliz tilidagi -ness suffiksi o'zlashgan turkiy so'zlarga yangi so'z yasashda eng ko'p qo'llaniluvchi mahsuldor suffikslardan biri bo'lib, u asosan turkiy sifat o'zaklarga qo'shib mavhum ot yasashga xizmat qiladi:

turkishness: *"But they treated his ideas with respect and began under his influence, to develop in themselves a new sense of Turkishness".* (Lord Kinross. Ataturk. London, 1959. – P. 56)

Shuningdek, -ed ham eng unumdor va ko'p qo'llaniluvchi sifat yasovchi qo'shimchadir. -ed suffiksi ot o'zaklarga qo'shib "in'om qilingan yoki ajralib turadigan" ma'noli sifatlarni yasashda xizmat qiladi. Hozirgi ingliz tilida o'zlashtirilgan turkiy o'zaklardan ko'p darajada -ed suffiksli sifatlarni yasalgan: *fezzed, yashmaked, shagreened* va boshqalar.

Turkiy leksik birliklar o'zlashtirish jarayonida yangi so'zlarni hosil qilish uchun asos bo'lib xizmat qilgan: ular ayrim tub so'zlarga birikish yo'li bilan qo'shma so'zlar va so'z birikmalarini hosil qilgan. Ularning ingliz tili tomonidan mustahkam o'zlashtirilganligining belgilaridan biri shuki, o'zlashma turkiy leksik birliklar tub so'zlar bilan birgalikda birikmaning tarkibiy qismiga aylangan: *turkey-cock, sherbet-seller, coffee-disease, Divan-day, Turks-cap lilly* va boshqalar.

Ba'zi bir turkiy so'zlardan gibrid so'zlarning ko'p sonli miqdori hosil qilingan. Misol uchun, NED lug'ati bo'yicha coffee so'zidan 53 ta gibrid hosilalar qayd qilingan: *coffe-room, coffee-shop, coffee-pot, coffee-head, coffee-cream, coffee-corn, coffee-man* va boshqalar.

Struktur tarkibi nuqtayi nazaridan gibrid qo'shma so'zlarni 1) ikkita ot o'zakli gibrid; ot va sifat o'zakdan tashkil topgan qo'shma so'zlar; 3) qo'shma so'zning birinchi qismi ot, ikkinchisi -er suffiksi bilan hosil qilingan boshqa ot o'zagining birikuvidan yasalgan; 4) qo'shma so'zning birinchi komponenti ot va ikkinchisi -ed suffiksini olgan sifatdan tashkil topgan; 5) har ikki qism tub sifatdan va ikkinchi qism otga -ed suffiksini qo'shish orqali yasalgan hosila sifat birikuvidan paydo bo'lgan gibrid qo'shma so'zlar kabi turlarga ajratish mumkin.

Ingliz adabiy tiliga kirib kelgan va shu paytgacha unda saqlanib qolgan so'zlarning uncha katta bo'lmagan guruhini o'zlarining etimonlariga xos bo'lmagan bitta va undan ko'proq ma'nolarni rivojlantirgan turkiy leksemalar tashkil qiladi. Misol uchun, XVIII asrda fransuz tilidan o'zlashgan turkiy tillardagi "kiosk" so'zi ingliz tiliga "yozgi saroy" ma'nosi bilan kirgan.

Ingliz tiliga “yuk ortilgan tuyalarning karvoni” ma’nosida kirgan turkiy “caravan” soʻzining ma’nosidagi semantik oʻzgarishlarni kuzatish ham qiziq masalalardandir:

“A *caravan* is a great many of camels laden, not much unlike our carriers here in England.” (P.P. – P. 482)

Hozirgi ingliz tilida “caravan” soʻzi nomlash vazifasini kengaytirish yoʻli bilan bir qator yangi maʼnolarni qoʻlga kiritdi:

1) soyabonli arava yoki toʻrt gʻildirakli arava;

2) koʻchma uy; koʻchmanchi hayot:

“I must wait for some artists ... who can perceive the poetry of American *caravan-life*.” (Withrop. John Brent, XI, 120, 1862)

Til aloqasi natijasida ingliz tiliga oʻzlashgan turkiy leksik birliklar manba tilda maʼlum semantik strukturaga ega edi va shu strukturani retseptor tilda ham koʻp hollarda saqlay oldi. Ayrimlari leksik assimilyatsiya tufayli asl maʼnosini yoʻqotdi.

«Ingliz tilidagi turkiy oʻzlashmalarining grammatik jihatdan assimilyatsiyasi» deb nomlangan uchinchi faslda ingliz tiliga oʻzlashgan turkiy soʻzlarning grammatik assimilyatsiyasi tahlilga tortilgan.

Biz tadqiq qilgan material ingliz tiliga kirib kelgan turkiy oʻzlashmalarining asosiy koʻpchiligini otlar tashkil qilishini koʻrsatdi. Boshqa soʻz turkumlari nisbatan uncha katta boʻlmagan miqdorni tashkil etadi.

Turkiy tillardan oʻzlashgan otlar oʻzlarining moddiy yoki mavhum borliqqa munosabatiga qarab aniq va mavhum turlarga boʻlingan. Ingliz tiliga turkiy oʻzlashtirilgan otlarning morfologik xususiyatlariga eʼtiborimizni qaratsak:

a) turkiy tillardan kelib chiqqan konkret otlarga moddiy borliqning hodisalari, predmetlari hamda mavjudotlarini aks ettiruvchi va nomlovchilar kiradi: *odalisque, tarpan, toman, tulip, yogurt* va boshqalar.

b) mavhum otlarga abstrakt tushunchalarni ifodalovchi va konkret otlarning munosabatini aks ettiruvchi soʻzlar kiradi: *turkism, kismet, bosh, bashawism* va h.k.

Soʻz maʼnosining metaforik koʻchishi tufayli turkiy soʻzlar ingliz tiliga oʻzlashish jarayonida otlashgan. Masalan, “bosh” va “kibosh” (boʻsh) sifatlari ingliz tiliga oʻzlashish jarayonida ot soʻz turkumiga aylanib, “bemaʼni gap, boʻlmagʻur gaplar, ahmoqlik, tentaklik, bemaʼnilik, bemaʼnigarchilik, safsata, boʻlmagʻur gap” maʼnolaridagi mavhum tushunchaga ega boʻlgan. Ushbu leksemaning yana bir oʻziga xos xususiyati uning ingliz tiliga kirib kelish usuli hisoblanadi. Mazkur soʻz ilk marotaba ot soʻz turkumi sifatida 1834-yili Jeyms Morierning (*Aysha, the Maid of Kars*) badiiy asarida qoʻllanilgan.²⁸

“*This firman is bosh - nothing*» (Morier. – P. 99).

Yuqoridagi misolda “bosh” soʻzi kontekstda undov gap sifatida namoyon boʻlyapti. Shuningdek, “bosh” turkiy soʻzi quyidagi inglizcha gapda undalma sifatida qoʻllanilgan.²⁹ “*oh, bosh!*”

²⁸ Online Etymology Dictionary [Electronic resource] [2001-2012]. URL.: <http://www.etymolnline.com/>. - P. 108.

²⁹ Власичева В.В. Особенности семантики и функционирования тюркизмов в русском и английском языках

“Bosh” turkiy o‘zlashmasi ko‘pincha so‘z o‘yini sifatida ham qo‘llaniladi. Masalan, quyidagi misolda Amerika basketbol uyushmasining mashhur basketbolchisi K.Boshe haqidagi maqolaning sarlavhasiga e‘tiborimizni qaratsak:

Oh, my Bosh (so‘zma-so‘z – “Ox, Boshim”) [TIME].

Bu yerda bir vaqtning o‘zida basketbolchining familiyasi, uning yomon o‘yiniga shama sifatida “*Oh my bosh!*” – “*E, xudo!*” birikmasi bilan ishlatiladi.

“Bosh” so‘zi inglizcha lug‘atlarda 1) undov so‘z: safsata, be‘mani (1656-yil), 2) ot: safsata, ahmoqlik (1834-yil, NED, Webster), 3) fe‘l. tegajaklik qilmoq, jig‘iga tegmoq, ahmoq qilmoq, laqillatmoq (1870-yil, NED, Webster) kabi ma‘nolarni ifodalashi qayd etilgan.

Hozirgi ingliz tilida turkiy tillardan o‘zlashgan fe‘llar kam miqdorni tashkil qiladi. Shuni aytish kerakki, ingliz tilida qo‘llaniladigan turkiy tillardan o‘zlashgan fe‘llar (20 ta fe‘l) aslida turkiy ot turkumiga kirgan.

Turkiy otdan konversiya (*coffee – to coffee*) va suffiksatsiya (*turkicize, turkify*) usullari orqali ingliz tilida fe‘l so‘z turkumini yasash eng mahsuldor usul sanaladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, turkiy o‘zlashmalar ingliz tili grammatik normalariga deyarli to‘liq moslashgan. Asosan ot turkumiga oid so‘zlar o‘zlashib affiksatsiya, konversiya yo‘li bilan fe‘l so‘z turkumiga o‘tgan.

XULOSA

Til eng yaxshi, qulay va betakror muloqot vositasi sifatida ma‘lum sotsiumga sidqidildan xizmat qiladi. U tilda gapiruvchilarning kommunikativ-pragmatik intensiyasini muntazam va to‘laqonli voqelantirish uchun doimo rivojlanib, mukammallashib boradi. Bunday jarayonlarda tilning ichki birliklari, belgilari, unsurlari va imkoniyatlarining ahamiyati va o‘rni beqiyos bo‘lib, tilda muloqotning ehtiyojga ko‘ra u yoki bu darajada kechishiga asos yaratiladi. Shu bilan birga ayrim hollarda muloqot taqozosi bilan til o‘zidagi yetishmayotgan birliklar, belgilar va unsurlarni o‘zga tildan o‘zlashtirishga majbur bo‘lib qoladi va faqat shu yo‘sinda muloqotdagi ehtiyojni qondirishga intiladi. Shunday qilib har bir til o‘zlashmalarga o‘zining eshiklarini ochib qo‘yadi, ayrim muloqot ehtiyojlarini o‘zlashmalar hisobiga bir amallab qondiradi. Demak, xulosa qilib aytish mumkinki, har bir tilda o‘zlashmalarga yo‘l bor, o‘rin bor, o‘zlashmalarsiz biror til to‘laqonli muloqot vositasi sifatida o‘z vazifasini to‘la bajara olmaydi.

